




2019 yil yanvar oyida amalga oshirilgan QURILISH ISHLARI

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi





Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

2019 yilning yanvar oyida Samarqand viloyatida **163,8** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2018 yilning shu davriga nisbatan **99,9** foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi **2,1** mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati **117,3** foizni tashkil qildi.

Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi **91,8** mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **102,0** foizni tashkil qil.

Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha ob'yektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

Norasmiy sektorda qurilish montaj ishlari hajmi **69,9** mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan **117,3%** ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning hajmi **134,1** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **81,9** % ni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan **96,5** % ni tashkil etdi.


Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **17,8** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **10,9** % ni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan **107,2** % ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **9,7** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **7,3** % ni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan **122,7** % ni tashkil etdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2019 yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlarining nodavlat mulkchiligi bo'yicha qurilish ishlari




2019 yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlarining davlat mulkchiligi bo'yicha qurilish ishlari





Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **160,3** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **97,8** foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan **17,8** bandga kamaydi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **3,5** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi **2,2** foizini tashkil qildi.





QURILISH FAOLIYATI


Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan (%)	jami hajmga nisbatan ulushi
Viloyat bo'yicha	163,8	99,9	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	52,6	105,5	32,1
Kattaqo'rg'on sh.	3,7	98,6	2,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	14,8	110,4	9,0
Bulung'ur	4,6	97,9	2,8
Jomboy	8,1	98,9	4,9
Ishtixon	7,6	87,7	4,6
Kattaqo'rg'on	7,3	100,5	4,5
Qo'shrabot	6,1	97,5	3,7
Narpay	5,2	111,5	3,2
Nurobod	5,7	171,5	3,5
Payariq	9,3	95,8	5,7
Pastdarg'om	9,9	90,8	6,0
Paxtachi	4,7	89,5	2,9
Samarqand	7,7	96,3	4,7
Tayloq	7,3	92,1	4,5
Urgut	9,2	91,1	5,6




QURILISH FAOLIYATI

Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so'mda)




Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda bajarilishi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Samarqand shahrida – **52,6** mlrd. so'm, Oqdaryo tumanida – **14,8** mlrd. so'm, Pastdarg'om tumanida – **9,9** mlrd. so'm, Payariq tumanida – **9,3** mlrd. so'm hamda Urgut tumanida – **9,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.





QURILISH FAOLIYATI

Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)




Qurilish ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajadagi o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi: Nurobod tumanida – **171,5** %, Narpay tumanida – **111,5** %, Oqdaryo tumanida – **110,4** % va Samarqand shahrida – **105,5** % ni tashkil qildi.





QURILISH FAOLIYATI

Hududlar kesimida qurilish ishlari (jami hajmga nisbatan foizda)



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

I.Raxmatov
(66) 235-60-82